

Научный вестник Бухарского государственного университета \* Scientific reports of Bukhara state University



ISSN 2181-6875

# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

3/2016

2000-YILDAN  
CHOP  
ETILMOQDA

BIR YILDA TO'RT  
MARTA CHOP  
ETILADI

**2016/3 (63)**

**TAHRIR KENGASHI RAISI:**

**To'laganov A.A.**  
*texnika fanlari doktori, professor*

**BOSH MUHARRIR:**

**Samiyev K.A.**  
*texnika fanlari nomzodi*

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Adizov B.R.**

*pedagogika fanlari doktori, professor  
(bosh muharrir o'rinbosari)*

**Amonov M.R.**

*texnika fanlari doktori, professor*

**Axmedova Sh.N.**

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Barotov Sh.R.**

*psixologiya fanlari doktori, professor*

**Baqoyeva M.Q.**

*filologiya fanlari doktori*

**Bo'riyev S.B.**

*biologiya fanlari doktori, professor*

**Bushuy A.M.**

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Djurayev D.R.**

*fiz.-mat. fanlari doktori, professor*

**Durdiyev D.Q.**

*fiz.-mat. fanlari doktori, professor*

**Hayitov Sh.A.**

*tarix fanlari doktori, professor*

**Ikromov I.A.**

*fiz.-mat. fanlari doktori, professor*

**Ixtiyarova G.A.**

*kimyo fanlari doktori*

**Mirzayev Sh.M.**

*texnika fanlari doktori, professor*

**Muhiddinov B.F.**

*Kimyo fanlari doktori, professor*

**Ne'matov H.G.**

*Filologiya fanlari doktori, professor*

**Ostonov S.H.**

*Fiz.-mat. fanlari doktori, professor*

**Qahhorov S.Q.**

*Pedagogika fanlari doktori, professor*

**Rajabov Q.K.**

*Tarix fanlari doktori, professor*

**Roziqov O'.A.**

*Fiz.-mat. fanlari doktori, professor*

**Sadullayev N.N.**

*Texnika fanlari doktori*

**Umarov B.B.**

*Kimyo fanlari doktori, professor*

**O'rayeva D.S.**

*filologiya fanlari doktori, professor*

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:**

**Navro'z-zoda B.N.**

*Iqtisod fanlari doktori, professor*

**To'rayev H.H.**

*Tarix fanlari doktori, professor*

**BUXORO DAVLAT  
UNIVERSITETI ILMIY  
AXBOROTI**

\*\*\*

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК  
БУХАРСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

\*\*\*

**SCIENTIFIC REPORTS OF  
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

*Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot  
agentligi Buxoro viloyat matbuot va  
axborot boshqarmasida  
2016-yil 29-fevral  
№ 05-073-sonli guvohnoma bilan  
ro'yxatga olingan.*

*"Buxoro davlat universiteti ilmiy  
axboroti" jurnali Filologiya va Fizika-  
matematika fanlari bo'yicha O'zbekiston  
Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining  
doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal Oliy o'quv yurtlarining  
professor-o'qituvchilari, katta ilmiy  
xodim-izlanuvchilar, talabalar, ilmiy  
tekshirish muassasalari ilmiy xodimlari,  
akademik litsey, kasb-hunar kollejlari  
o'qituvchilari hamda umumiy o'rta ta'lim  
va turli sohalarida xizmat qilayotgan  
ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan.*

**Muassis: Buxoro davlat  
universiteti**

**MAS'UL KOTIB**

*Izomova M.K.*

**MUHARRIRLAR: Abuzalova M.Q.**

*Temirova D.X.*

*Voxidova N.N.*

**BO'LIM MUHARRIRI: Rajabova R.Z.**

**BO'LIM MUSAHHIHI: Yuldasheva D.Sh.**

• **BUXORO TARIXI**

Тулаган А.А., Хайитов Ш.А. Бухоронинг мухтасар қомуси.....2

• **ANIQ VA TABIIY FANLAR**

Дурдиев Д.К., Алимов Х.Н., Маматов М.Ш. Дробное интегро-дифференциальное исчисление и его приложения в теории дифференциальных игр преследования дробного порядка.....5

Каримов А.В., Джураев Д.Р., Тураев А.А., Ёдгорова Д.М., Абдулхаев О.А. Особенности чувствительности полупродниковых многофункциональных датчиков под внешним воздействием.....11

Курбанов К., Ганиева З.Г., Эргашев Ш.Ш. Определение механических воздействий на гидротехнические сооружения с помощью радиационных процессов в оптических волокнах.....16

Жумаев Ж., Юлдошев Ш.С., Қобилов К.Х. Исследование начального участка свободной струи с помощью однопараметрической модели турбулентности.....21

Гафуров К.Х., Файзиев Ш.И., Ибрагимов У.М. Разработка схемы и программы управления температурой и давлением растворителя в экстракционном контуре производства экстрактов из растительного сырья.....25

Юлдашев Х.Т., Хайдаров Б.З., Касымов Ш.С. Особенности газового разряда при малых межэлектродных расстояниях в ионизационной системе.....32

Imotova Sh.M. Matritsa xos son va xos vektorlarining tatbiqlari.....38

Авлиякулов Н.Н., Ибрагимов М.Ю. Результативность внедрения системы менеджмента качества ИСО 9001-2008 на производственных предприятиях.....43

Усмонов Ф.Б., Ибодов Р.К., Хикматов Ф.С. Темир бетон конструкциялар ишлаб чиқариладиган гелиополигонларнинг узлуксиз ишлашини таъминлаш имкониятлари.....48

• **TILSHUNOSLIK**

Бушуй Т.А. Языковой факт в общей лингвистике.....54

Попов Д.В. Риторические приёмы в посланиях Ивана Грозного.....59

Raizbekova A.J. Russian proverbs: lexical categorization and representation of time in them.....63

Тошхўжаева Ш.Ф. Эркин Аъзам асарларида қўлланувчи варваризм ва вульгаризмларнинг лингвопозтик хусусиятлари.....68

Тухтаходжаева Н.А. Инглиз ва ўзбек тилларидаги лингвокультуремаларнинг гендер хусусияти.....75

Тошева Д.А. Лингвокультурология ва унинг тадқиқ манбаи.....80

Юсупов О.Н. Бадиий матн: тушунча ва дифференциал хусусиятлар.....85

Эргашева Г.Қ. Рус ва ўзбек тилларида психологияга оид терминлар: маъно ва шакл муносабатларидаги ўхшаш ва фарқли жиҳатлар.....89

Салоҳидинова З.О. Стилистические ресурсы фразеологизмов в поэтическом идиостиле.....94

Ботирова А.Э. Мавхум отларнинг бириктириш қобилияти.....98

Очилова М.Р. Содда гап шаклидаги мақолларнинг лисоний хусусиятлари.....101

• **ADABIYOTSHUNOSLIK**

Ўраева Д.С. Бадиий адабиётда хизматкор образининг тимсоллаштирилиши хусусида.....104

Хайитов Ш.А. Ҳилм асрори.....110

Чориев Т.Р. Абдурауф Фитратнинг Умар Хайём рубойларини ўрганиши ва нашри хусусида.....115

Сидоркова Л.Р. Особенности репрезентации концептосферы романа М. Булгакова «Белая гвардия».....122

Давронова Ш.Ф. Бадиий образ: аъана ва янгилик масаласи.....126

Қурбоннов А.А. "Фарҳод ва Ширин"даги муаммолар: мазмун ва маҳорат мутаносиблиги.....133

Амонов У.С. Ғози Олим Юнусовнинг фольклоршунослик фаолияти.....138

• **NAVOIY GULSHANI**

Бекова Н.Ж. "Навоий қайси тил бирла сенинг ҳамдинг баён қилсун.....143

• **FALSAFA VA HUQUQ**

Шарипова О.Т., Гуламова М.М. "Наводирул вақо" асариди инсон муаммоси.....146

Турдиматова И.Г. Суицид – глобал муаммо сифатида.....151

Очиллов Ж.А. Глобал техноген цивилизациянинг гуманистик моҳияти.....156

Алимова Г.Б. Ахборотлашган жамиятда журналистиканинг ўзгариши, конвергенцияси ва сиёсий-ижтимоий, маданий ҳаётда тутган ўрни.....160

Эргашев Ш.Х. Меҳнат шартномаси – ходим ҳуқуқларининг ишончли ҳимояси.....165

• **TARIXSHUNOSLIK**

Хайитов Ш.А., Орзиев М.З., Иноятлов М.Б. Бухоро қорақўлининг жаҳоний шуҳрати тарихий манбалар йилқинида ("туркистон тўплами" мисолида).....171

Ҳамроев А.Х., Раҳмонова М.А. Унутилган тарих (ёхуд олийгоҳ ташкилотчиси Қаримжон Ваҳобов ҳақида).....175

• **IQTISODIYOT**

Ҳамроев Ҳ.Р. Ўзбекистонда иқтисодий эркинлик либераллаштириш йўлларида бири тўғрисида.....181

Qayimova Z.A. Bank tizimi barqarorligini oshirishning dolzarb masalalari.....186

• **PEDAGOGIKA**

Турсунметов К.А., Шералиев С.С. Физпрактикумда аъанавий ва ноанъанавий методларнинг аналитик таҳлили.....191

Қодиров Р.Х., Музафарова Ф.Б. Циклик спорт турларига хос ишчанлик ва маҳсус чидамлик ўлчовлари тўғрисида.....196

Yodgorov N.J., Shukurov A.R. Chizmachilik fanining rivojlanish va o'qitilish tarixi haqida.....200

Абдуллаев М.Ж., Нарзуллаев Ф.А. Инновационные технологии в педагогике физической культуры и спорта.....204

Mattiyev I.B. Salomatlikni asrashga yo'naltilgan tafakkumi shakllantirish – davr talabi.....208

Саидов И.И. Мактабгача ва бошланғич таълимда жисмоний тарбия дарсларини соғломлаштиришга йўналтириш методикаси.....213

Tursunova O.F., Boltayeva Sh.A. Ona tili daralarida o'quv lug'atlaridan foydalanish imkoniyatlari.....219

Халимов М.К. Муҳандислик графикаси фанидан талабанинг ўзлаштирган билимини кўникма ва малакага айлантириш.....224

• **SAN'ATSHUNOSLIK**

Бойметов Б.Б., Азимов С.С., Азимова М.Б. Тасвирий санъат соҳасида мактаб яратган устоз.....228

• **QUTLOV**

Қувватова Д.Х.....234

Фан олимпиадаси республика босқичи голиблари.....236

• **E'OLON**

"Бухоро давлат университети илмий ахбороти" журналида мақола эълон қилиш талаб ва шартлари.....237-238

Demak, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari talabalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirishning pedagogik texnologiyasini yaratish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan sanaladi. Yuqorida ta'kidlangan shart-sharoit va ijtimoiy talab, zaruriyatlarning mavjudligi pedagogika sohasidan quyidagi vazifalarning bajarilishini talab etadi:

1. Muammoning mavjud ilmiy-pedagogik, nazariy, sotsiologik, falsafiy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy manbalarini o'rganish asosida nazariya va amaliyotdagi holatini o'rganish.

2. Biznes va xizmat ko'rsatish sohalari talabalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirishning pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish ijtimoiy zaruriyat ekanligini nazariy-amaliy jihatdan asoslash.

3. Biznes va xizmat ko'rsatish sohalari talabalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirishning pedagogik texnologiyasi, uning mazmuni, yaxlit andozasi, shart-sharoitlari, shakl, vosita, metod va uslublarini aniqlash.

4. Biznes va xizmat ko'rsatish sohalari talabalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, uning mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi, pedagogik jarayon samaradorligini oshiruvchi ilmiy-metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqish va uning samaradorlik darajasini aniqlash.

Pedagogik o'rganish va tahlil asosida olingan natijalar, ilmiy xulosalar va g'oyalar bo'yicha ishlab chiqilgan hamda amaliyotda tajribadan o'tkazilgan pedagogik texnologiya, innovatsion qarashlar, yaxlit pedagogik andoza va metodik tavsiyalar ta'lim jarayoni mazmunini takomillashtirish, mavjud ta'lim tizimini yangi qarashlar bilan boyitish, uni jamiyatdagi tub o'zgarishlar jarayoniga maqsadli yo'naltirish va samaradorlik darajasini oshirish, turli amaliy treninglarni hayotga tatbiq etish imkoniyatining o'sishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. **Karimov I.A.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi. – 1999. – 8-dekabr.
2. **Nishonova S.** Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda uzviylik // Uzluksiz ta'lim. – 2007. – №6. – B. 77-83.
3. **Мухамедиева С.Р.** Формы и методы повышения эффективности гигиенического воспитания студентов: Дисс. .... канд.пед.наук. – Т., 2006. – 21 с.
4. **Risqulova K.** Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda nodavlat tashkilotlarning hamkorligi: ped.fan.nomz.... diss. avtoref. – Т., 2011. – 21 b.
5. **Tilovov M.R.** Tibbiyot kollejarida salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish: ped.fan.nomz.... diss. – Т., 2009. – 80 b.
6. **Xolmatova M.** Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog'lom avlodni tarbiyalash muammolari: Fals. fan. dokt. ....diss. avtoreferati. – Т., 1998. – 26 b.

#### МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШГА ЙУНАЛТИРИШ МЕТОДИКАСИ

**Саидов Иззатилло Истамович**

*БухДУ Жисмоний тарбия назарияси ва услубиёти кафедраси мустақил-изланувчиси*

**Таянч сўзлар:** соғломлаштириш, соғломлаштирувчи жисмоний тарбия, ўқувчиларнинг жисмоний тайёргарлик даражаси, дифференциал ёндашув, яхши ва тез ўзлаштирувчи ўқувчилар, секин ўзлаштирувчи ўқувчилар.

**Ключевые слова:** оздоровление, оздоровительное физическое воспитание, степень физической подготовки учащихся, дифференциальный подход, быстроуспевающие учащиеся, слабоуспевающие учащиеся.

**Key words:** health and fitness, health improving physical education, the degree of pupils' physical preparation, differential approach, smart pupils, poor achievers.

Ушбу мақолада мактабгача ва бошланғич таълимда жисмоний тарбия машғулотларини болаларни соғломлаштиришга йўналтириш асосида ташкил қилиш усуллари баён этилган.

*В данной статье изложены методы организации оздоровительных занятий физического воспитания в дошкольных организациях и начальных классах общеобразовательных школ.*

*The article deals with the methods of organizing physical education classes in preschool and primary education on the basis of improving children's health.*

Бугунги кунда ёш авлод тарбияси, саломатлигига берилаётган эътибор эртанги кунимизга берилаётган эътибордир. Бошқача айтганда, давлатнинг эртанги кун қандай бўлиши аҳолининг саломатлик даражаси ва ёшларининг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ. Мамлакатимизда бу борада мисли кўрилмаган ишлар амалга оширилаётганлиги, жумладан, аҳолининг саломатлик даражасини яхшилаш борасида бир қанча соҳаларда ижобий ишлар қилинаётганлиги ҳеч кимга сир эмас. Шунини алоҳида таъкидлашимиз лозимки, мактабгача тарбия ва кичик мактаб ёшидан бошлаб жисмонан, маънан етук шахсларни тарбиялаш бугунги таълим олдида турган долзарб масалалардан бири саналади. Шу мақсадда ҳам бугунги кунда Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантириш масаласига давлат сиёсати даражасида қаралиб, ундан миллат генофондини соғломлаштириш, жисмоний ва интеллектуал салоҳиятли авлодни тарбиялашнинг кафолатли воситаси ва миллий истиқлол ғояларини тарғиб қилишда стратегик аҳамиятга эга бўлган муҳим соҳа сифатида фойдаланилмоқда.

Айнан мустақиллик шарофати билан мамлакатимизда бу тармоқни ривожлантириш йўлида юқори даражада ўзгаришлар амалга оширилганлиги бугун ҳеч кимга сир эмас. Ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш мақсадида давлат стандартлари талабларига жавоб берадиган спорт мажмуалари қурилди ва улар самарали фаолият олиб бормоқда. Жисмоний тарбия ва спорт мамлакат фуқаролари умумий маданиятининг ажралмас бир қисми бўлмоғи зарур.

Инсонпарварлик жамиятини ривожлантиришнинг замонавий босқичида жисмоний тарбия ва спорт соҳасида ўқувчиларнинг умумий жисмоний тайёргарлик даражасини ошириш, уларнинг иқтидорини ривожлантириш билан боғлиқ масалалар муҳим аҳамият касб этади. Мактабгача тарбия ва бошланғич таълимдаги жисмоний тарбия дарслари ўқувчиларда ҳаракатлантирувчи билим ва малакаларни шакллантиришни, уларнинг ҳар томонлама муносиб камол топишига хизмат қиладиган жисмоний тайёргарлик негизининг асосларини яратишни назарда тутди. Жисмоний тайёргарлик соғлом бўлишнинг энг муҳим шarti, унинг яхшиланиши эса мактаблардаги жисмоний тарбия машғулотларининг соғломлаштиришга йўналтирилиб, юқори даражада ўтилишига боғлиқ. Анъанавий усулда ташкиллаштирилган жисмоний тарбия дарслари мактаб ўқувчиларининг маълум бир жисмоний имкониятларини ривожлантириш, мазкур ёшдагилар учун характерли бўлган билим ва малакаларни, жисмоний тарбия талабларига жавоб берадиган билимларни шакллантиришга қаратилган, холос.


Бундай ўқув машғулотини ташкиллаштириш жараёнида болаларнинг жисмоний тайёргарлиги ва ҳаракатлана олиш имкониятининг турличалиги боис жисмоний тарбия фани ўқитувчилари ҳар бир ўқувчи билан алоҳида ёхуд уларни даражаларга ажратган ҳолда ўз мақсадларини амалга оширишлари лозим. Бироқ, бу масалага таълим жараёнида кам эътибор берилмоқда. Ўқувчилар жисмоний тарбиясининг замонавий концепциядаги муҳим жиҳати шундаки, унда жисмоний тарбия дарсларида соғломлаштириш муаммосининг ролини оширишга қаратилган. Афсуски, таълим жараёнида бу йўналишга етарлича эътибор берилмаяпти. Кузатишларимиз шуни кўрсатадики, бошланғич синф ўқувчиларига жисмоний тарбия машғулотларини ўтиш жараёнида назарий ва методик билимларни соғломлаштириш технологиялари билан қўшиб олиб боришнинг самарали усуллари тўлиқ ишлаб чиқилмаган. Ушбу муаммонинг

ечимини топиш турли даражада жисмоний тайёргарликка эга бўлган бошланғич синф ўқувчиларининг соғлигини мустаҳкамлаш ва асрашда ниҳоятда долзарб аҳамиятга эга.

Жисмоний тарбия дарслари бўйича илгари ишлаб чиқилган тизимнинг номукамаллиги яна шундаки, унинг асосий мақсади соғломлаштирувчи эмас, балки таълимий характер асосида тузилганлигидир. Бу эса жисмонан соғломлик даражасини аниқлаштиришда диагностик методиканинг қисман назарда тутилмаганлиги билан боғлиқдир. Жамиятнинг, айниқса, болаларнинг жисмоний тайёргарлигини яхшилашга эришиш учун жисмоний тарбия ва спорт аҳолининг барча қатлами учун кундалик турмуш тарзининг ажралмас бўлагига айланиши лозим. Буни амалга оширишнинг самарали усули шуғулланувчи болаларда жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари тизимига доимий ижобий муносабатни шакллантиришдир. Мазкур муаммонинг ечими кўп жиҳатдан шуғулланувчи болаларнинг бу машғулотларга нечоғлик қизиқишлари ва қониқишларига боғлиқ.

Шу боис жисмоний тарбия ва спорт машғулотларига бўлган муносабатни ўрганиш нафақат ижтимоий ва психологик, балки дарс жараёнида онглилик ва фаоллик тамойилини амалга оширувчи муносабатни шакллантиришга хизмат қилувчи назарий ҳамда амалий педагогик таълимга тўғридан-тўғри аҳамият касб этувчи муаммо ҳамдир. Шуғулланувчиларда жисмоний тарбия ва спорт дарсларига нисбатан пайдо бўлган норозиликнинг келиб чиқиш омилларини ўрганиш уларда машғулотларга бўлган онгли муносабатни ўрганишга ёрдам беради, уларнинг жисмоний тарбия дарслари жараёнидаги фаоллигини оширади. Жисмоний тарбияда дифференциал ёндашувни комплекс мажмуавий амалга ошириш зарурати жисмоний тарбия дарслари жараёнида йўл қўйилаётган айрим ҳолатлар туфайли пайдо бўлади.


Ўқувчиларнинг қобилият ва иқтидорини намоён этишга қаратилган барча болалар учун бир хил бўлган умумий таълим уларнинг етарли даражада интенсив ривожланишига кафолат беролмайди. Бу биринчи навбатда бир синфда ўқийдиган ўқувчиларнинг бир хил эмаслигига, уларнинг қизиқиш ва қобилиятларининг турфалигига боғлиқ.



1-расм. Турли даражадаги жисмоний тайёргарликка эга бўлган бошланғич синф ўқувчиларининг соғлигини сақлаш ва мустаҳкамлашга йўналтирилган усулнинг ўзига хосликлари


Ўқитилаётган гуруҳларда шундай ўқувчилар бўлиши мумкинки, уларга ўтилаётган ўқув материали аллақачон таниш, ҳаракатлантирувчи машқлар эса ҳеч қандай қийинчилик туғдирмаслиги мумкин. Бундай ўқувчиларнинг машғулотларда қатнашиши ўқитувчи томонидан алоҳида инobatта олиниб, ўзлаштиришларида нисбатан юқори натижага эришиш учун уларга берилаётган топшириқни янада мураккаброқ қайта ишлаб чиқиш, ҳаракатлантирувчи машқларни чуқурлаштириш талаб этилади. Бир ўқувчи ҳаракатлантирувчи билимни энди ўзлаштираётган бир пайтда, бошқа ўқувчи аллақачон бу билимни мукамал даражада эгаллаши мумкин. Ҳаракатлантирувчи ҳолатларга ўқитиш жараёнида ҳар бир гуруҳ ўзининг жисмоний тайёргарлигидан келиб чиққан ҳолда машқни бажарди. Тажриба синфларида ўқувчиларни гуруҳларга бўлиш йўли амалга оширилди:

1. Аъло, яхши ва тез ўзлаштирувчилар гуруҳи.
2. Дарсни қониқарли ва секин ўзлаштирувчилар гуруҳи.



2-расм. Ўқувчиларнинг жисмоний тарбиясидаги вазифалар


Тажриба иши давомида бир гуруҳдан иккинчи гуруҳга ўтишга рухсат берилди (фақат маълум машқни ўзлаштириб бўлганидан сўнг). Машқлар жараёнида паст бўйли ўқувчилар юқори мураккаб координацияли машқларни яхшироқ бажаришлари, баланд бўйли ўқувчилар эса югуриш тезлик машқларини бажаришларини инobatта олмоқ керак. Кучи камроқ ўқувчилар чидамлилиқни талаб этувчи машқларни яхши бажаришади.



3-расм. Ташкилий-усулий ёндашув асосида ўқувчиларда жисмоний хусусиятларни ривожлантиришнинг услубий ўзига хосликлари

Ўқувчиларни ҳаракатлантирувчи фаолиятга ўргатишнинг юқорида кўрсатилган дифференциацияси шуни кўрсатдики, кучли гуруҳ ўқувчилари ўқув материални суст гуруҳ ўқувчиларига қараганда икки дарс олдин ўзлаштириб бўлишар экан, шунинг учун уларга янги мавзунинг бир вақтнинг ўзида бошлаб тугатиш лозим. Ана шуларни инобатга олган ҳолда турли тайёргарликка эга гуруҳлар ўқувчилари учун ўқув материални режалаштиришнинг янги вариантыни таклиф этамиз.

Жисмоний тайёргарлик меъёрий даражасини сақлаб туриш ва унга эришиш учун белгилаб олинган меъёр даркор.



4-расм. Ўқувчиларда жисмоний сифатларни ташкилий-усулий ёндашув асосида ривожлантириш усулиётининг ўзига хосликлари

Бошланғич синф ўқувчиларида жисмоний сифатларни ривожлантиришда ўқув йили давомида юкламаларни босқичма-босқич кўтариб бориш мақсадга мувофиқ. Жисмоний сифатларни ривожлантиришга даражаларга бўлган ҳолда ёндашишнинг моҳияти шундаки, тайёргарлиги турлича бўлган 2 та гуруҳни ўқитишда бир хил, айтиб чоғда турлича услуб ва воситалардан фойдаланилади, лекин бунда ҳажмдаги юкламалар турлича режалаштирилади.

Дифференциал ёндашувни ташкиллаштириш тахмин қилади:

1. Синфдаги ўқувчиларни турли тайёргарликка эга гуруҳларга бўлиш;
2. Дарсда ўқитишнинг методлари, методик усуллари, топшириқлар дифференциацияси, ўқувчиларга уларнинг жисмоний тайёргарлигини инобатга олган ҳолда дарс машғулотларини ташкил этишдан иборат бўлган ўқув фаолиятини ташкиллаштириш.

Ўқувчиларни гуруҳларга бўлишдан олдин уларнинг жисмоний тайёргарлиги ҳақидаги маълумотга эга бўлиш лозим. Уларнинг жисмоний тайёргарлиги даражасини аниқлаш учун ушбу ўқув дастурининг жисмоний сифатларини акс эттирувчи 2-3 та тестни танлаб олиш лозим. Масалан, “енгил атлетика” бўлимини ўрганишдан олдин биз қуйидаги тест натижаларига таянишни тавсия этамиз: қисқа масофага (30м) максимал тезликда югуриш; ўртача тезликдаги давомли югуриш (максимал тезликдан (50-60%) – олти дақиқали югуриш; турган жойида максимал натижа кўрсатиб сакраш. “Гимнастика” бўлимини ўрганишдан олдин қуйидаги тест натижаларига асосланишни тавсия этамиз: ўғил болаларнинг арғамчида сакраш, “турникда тортилиши” тести орқали, қизларда эса “ётган ҳолатда паст турникда тортилиш”, “гавданнинг олдинга эгилишчанлиги” тестлари орқали аниқланади. “Ҳаракатлантирувчи ва спорт ўйинлари” бўлимини ўрганишдан олдин биз қуйидаги тест натижаларига таянишни тавсия этамиз: 3x10 м га моксишон югуриш, арғамчида сакраш.

Жисмоний тарбияни ўқитиш таълимида комплекс дифференциал ёндашувни ишлаб чиқиш зарурати жисмоний тарбия соҳасида юз берган айрим ҳолатлар билан изоҳланади.

Ўқувчиларнинг куч, иқтидор ва қобилиятларини юзага чиқаришни муҳим шарт қилиб белгилаган, ҳамма учун бир хил бўлган умумий таълим уларнинг интенсив ривожланишига кафолат беролмайди. Бу биринчи навбатда ҳамма синфдаги ўқувчиларнинг турличалиги ва қизиқишлари билан боғлиқ.

Дифференциал таълим ўқувчиларнинг индивидуал имкониятларини инобатга олган ҳолда тузилган бўлиб, турли ўқувчилар учун турлича бўлган таълим мазмунини ўзлаштиришни таъминлайди.

Ўқувчининг қандай натижани кўрсатганига қараб уни маълум жисмоний тайёргарликка эга ўқувчилар гуруҳига киритиш мумкин. Агар у кучли гуруҳда шуғулланишда давом этаётган бўлса, юқори ва ўрта даражадан юқорироқ натижани кўрсатса, у ҳолда жисмоний тайёргарлиги қуйидагича: бўш гуруҳда ўртача, ўртачадан пастроқ, паст кўрсаткич. Ваҳоланки, бир ўқувчи турли бўлимларда бир вақтнинг ўзида ҳам кучли гуруҳда, ҳам паст гуруҳда бўлиши мумкин. Шундай қилиб, дарснинг турли бўлимларида гуруҳларнинг таркиби турлича бўлади.

К.Д. Ушинский бу борада шундай деган эди: “Синфни бир-биридан кучли гуруҳларга бўлиш ниҳоятда фойдали, албатта, агар бунда устоз бир гуруҳ билан шуғулланиб туриб, бошқасига фойдали мустақил машқларни бера олса”. Ўқувчиларни жисмоний тайёргарлик даражаси бўйича гуруҳларга бўлиш асосий ва навбатдаги ҳар бир дарс бўлимига тааллуқли бир-иккита назорат машқларини бажаришидаги сифат орқали аниқланади.

Ҳаракатлантирувчи ҳолатларда ўқитишнинг ҳар бир босқичида ҳар бир бўлим жисмоний ва техник тайёргарлигига қараб алоҳида топшириқ олади. Бир гуруҳдан бошқасига ўтишга маълум ҳаракатлантирувчи ҳолатни ўзлаштиргандан кейингина рухсат берилади. Шунинг учун ўқувчиларни берилган ҳаракат фаолиятини ўзлаштиришдаги хусусият даражасининг ривожланишига қараб гуруҳларга бўлиш керак.

Дарснинг юқори натижасига эришишда ўқувчиларнинг фронтал, синфий, гуруҳли, индивидуал, айлана машқлар ва бошқа ўқув машғулотларини ташкиллаштириш методи аҳамиятга эга. Дарснинг топшириғини инобатга олган ҳолда, ўқувчиларнинг сони ва тайёргарлиги, спорт анжомлари ва бошқаларга кўра уларнинг фаолияти турлича ташкиллаштирилиши мумкин.

Фронтал методдан унча оғир бўлмаган ўқув материални ўтишда фойдаланилади. Бунда ўқитувчи бутун синф устидан умумий назорат олиб бориши, белгиланганларга алоҳида эътибор қаратмаган ва баъзи ўқувчиларга машқларни бажариш жараёнида кўмаклашмаган ҳолда чегараланиб дарс ўтиши мумкин.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Асарлар. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 360 б.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 8-30.
3. Umumiy o'rtta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali. – Toshkent. 1999. 7 – maxsus son. – B. 71-135. Umumiy o'rtta ta'limning davlat ta'lim standarti va takomillashtirilgan o'quv dasturi // "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. – Toshkent, 2005. - №5.
4. Атоев А.Қ., Саидов И.И. Маҳаллада кичик синф ёшидаги болаларни жисмоний тарбиялаш ва соғломлаштириш // “Педагогик маҳорат”. – Бухоро, 2010. - №2. – Б. 28-31.
5. Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. // Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2005. – 172 б.
6. Абдуллаев А., Ханкельдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усуллари. Жисмоний тарбия институти ва олий таълим муассасалари жисмоний тарбия факультетлари учун дарслик. – Т., 2005. – 232 б.